

**“O'QUVCHİLARGA FUQAROLİK HUQUQLARİNİ VA ULARNİ
JAMİYATDA QO'LLAY OLİSHNİ O'RGATİSH”**

Yakkabog' tumani

19-umumiy o'rta talim maktabi

Tarix huquq va tarbiya fani o'qituvchisi

ERKINOVA SHOHSANAM TO'LQIN QIZI

Taqrizchi: Isroilova Dilnoza Azizjon qizi



Annotatsiya

Ushbu metodik qo'llanmada o'quvchilarining jamiyatdagi huquqlarini bilishlari, huquq darslarida ushbu mavzuning o'quvchilarga o'rgatish va uni amaliyotda qo'llanilishi haqida so'z boradi.

MUNDARIJA:

- 1.Kirish.....**
-
- 2. Fuqarolik huquqlari haqida.....**
- 3.Davlatimizdagi huquq ustuvorligi.....**
- 4.Testlar.....**
- 5.Xulosa.....**
- 6.Adabiyotlar.....**

KIRISH.

O'zbekistonda fuqarolar huquq munosabatlarni davlatning Asosiy qonuni Konstitutsiya, shuningdek 1997-yil 1-martdan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi tartibga soladi. Biz har kuni turli xil mulkiy tusdagi huquq munosabatlariga kirishamiz: do'konlarda xarid qilamiz, sovg'alar olamiz, jamoat transportida yuramiz va hokazo. Ijtimoiy munosabatlarning mazkur

barcha toifalarini tovar-pul shakli birlashtiradi: biz tovar yoki xizmat uchun qanchadir pul to‘laymiz. Bunday ijti’moiy munosabatlar fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadi.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi manbalariga quyidagilar kiradi:

- Konstitutsiya;
- Fuqarolik kodeksi;
- amaldagi qonunlar;
- qonun kuchiga ega hujjatlar (Prezident Farmonlari, Oliy Majlis qarorlari, Vazirlar Mahkamasi farmoyishlari, mahalliy hokimiyat hujjatlari);
- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari;
- ish muomalasi rasm-rusumlari (qonunlarda nazarda tutilmagan harakatlar); — mahalliy odat va an’analar

Fuqarolik qonun hujjatlari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o‘zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog‘liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solidi.

Fuqarolar, yuridik shaxslar, shuningdek davlat fuqarolik huquqi subyektlari hisoblanadi. Huquqiy munosabatlar subyektlarining yakka tartibdagi va jamoa turlari mavjud. Yakka tartibdagi subyektlar (jismoniy shaxslar)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;
- ajnabiy fuqarolar kiradi.

Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deyilganida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlar fuqrolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi. Bunda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va ajnabiy fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari singari fuqarolar huquq munosabatlariga kirishishi mumkin. Huquqiy munosabatlar subyekti bo‘lish uchun shaxslar huquqiy layoqat yoki muomala layoqatiga ega bo‘lishlari kerak. Huquqiy layoqat — fuqarolarning huquq va burchlarga ega bo‘lish layoqati. Fuqaroning huquqiy layoqati u tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va butun hayoti davomida saqlanadi. Muomala layoqati — shaxsning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati. Bu ruhiy va yosh cheklanishlari bilan bog‘liq. Muomala layoqati quyidagicha bo‘ladi:

- to‘la hajmdagi (18 yoshdan boshlab);
- voyaga yetmaganlar (14 yoshdan 18 yoshgacha);
- kichik yoshdagи voyaga yetmaganlar (7 yoshdan 14 yoshgacha). Fuqarolik kodeksiga voyaga yetmaganlar emansipatsiyasi tushunchasi kiritildi. Lotin tilidan

tarjima qilinganda «emansipatsiya» so‘zi «tobelikdan ozodlikka chiqish, huquqlarda tenglashish» ma’nosini anglatadi.

Voyaga yetmaganlar quyidagi hollarda to‘liq yuridik salohiyatga ega deb tan olinadi:

- 16 yoshga yetganidan so‘ng;
- yovaga yetmagan shaxs tomonidan mehnat shartnomasi tuzish yoki tadbir korlik faoliyati yuritishga ham otasi, ham onasining roziligi olinganida. 14 yoshga yetmagan (voyaga yetmagan — kichik yoshdagи bolalar) mayda maishiy bitimlarni bajarishga (masalan, do‘kondan non xarid qilish, shuningdek ota-onasi yoki uchinchi shaxslardan olgan pul mablag‘idan foydalanishga) haqli. Bundan tashqari, kichik yoshdagи bolalar evazsiz (badalsiz) manfaat ko‘rishga qaratilgan ba’zi bitimlarni (tug‘ilgan kunda sovg‘a qilish) amalga oshirishlari mumkin. Kichik yoshdagи bolalar bajargan bitimlar uchun ularning ota-onasi javobgar bo‘ladi. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar bitimlarni o‘z ota-onalarining yozma roziligi bilan tuzishga haqlidirlar. Ular mustaqil ravishda o‘z ish haqi, stipendiyasi, bankdagi omonatini tasarruf etish, mualliflik huquqidан foydalanishlari mumkin. Fuqaroning muomalaga layoqatliligi nafaqat uning yoshiga (olti yoshgacha bolalar muomalaga layoqatsizdir), balki ruhiy sog‘ligining holatiga ham bog‘liqdir. Fuqaro o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan ruhiy kasallik (aqli zaiflik) fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topishga asos bo‘lib, fuqaro, shuningdek, o‘z harakatlarining 58 ahamiyatini tushunsa-da, ammo ularni boshqara olmagan taqdirda ham muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin. Fuqaro faqat sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin, bu esa uning huquqlarini kafolatlaydi va muhofazalaydi. Fuqaro muomalaga layoqatsiz deb topilganidan so‘ng bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Vasiy muomalaga layoqatsiz fuqaroning qonuniy vakili bo‘lib, uning huquqlarini himoya qiladi hamda uning nomidan bitimlar va yuridik ahamiyatga ega boshqa harakatlarni amalga oshiradi. Basharti fuqaro muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo‘lgan asoslар bekor bo‘lsa, sud sog‘aygan fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish hamda uning ustidan belgilangan vasiylikni bekor qilish haqida hal qiluv qarori chiqaradi.

Jinoiy javobgarlik va jazo tizimi:

Jinoyatni har doim aniq jiemoniy shaxslar sodir etadi. Shuning uchun ham jinoyat sodir etgan shaxs jinoyatning subyekti deb tan olinadi. Jinoyat subyektining yo‘qligi jinoyat tarkibi va jinoyatning o‘zi mavjud emasligini bildiradi. Jinoyatga oid qonunlarda subyektga nisbatan aybdor, mahkum, jinoyat sodir etgan shaxs, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxs kabi tushunchalar ishlataladi.

Yuridik shaxslar, ya’ni tashkilotlar, korxonalar, muassasalar va jamoat birlashmalari jinoyat subyekti bo‘la olmaydi. Shuning uchun ijtimoiy xavfli harakat davlat korxonasi, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmalarida xizmat yoki ishlab

chiqarish faoliyati bilan bog‘liq holda sodir etilsa, mazkur vazifaga mas’ul bo‘lgan tegishli mansabdor shaxslar yoki boshqa xizmatchilar jinoyat subyektiga aylanadi. Jinoyat subyektining aqli raso bo‘lishi shart, ya’ni u o‘z harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan bo‘lishi va ularni boshqara olishi shart. Aqli rasolik ayb va jinoiy javobgarlikning zaruriy shartidir. Faqat o‘z harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxslar, aybdorni tuzatish maqsadida, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat qonunida to‘rt turdagи jinoyat ishtirokchilari farqlanadi: bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi. Mazkur turlarni ajratish asosiga obyektiv mezon qo‘yilgan bo‘lib, u har bir ishtirokchining jinoyat sodir etishda ishtirok etish darajasi va xususiyati bilan bog‘liq. Jinoyatni bajaruvchilar deb: a) bevosita o‘zlari to‘liq yoki qisman jinoyat sodir etgan shaxslar; b) bevosita o‘zlari jinoyat sodir etmagan, biroq shu maqsadda jinoyat qonunlariga muvofiq, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lmagan shaxslardan foydalangan shaxslar tan olinadi. Yoshi yoki aqli norasoligi tufayli jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lmagan yoki ehtiyyotsizlik yoxud aybsiz harakat qilgan shaxslarni qasddan jinoyat sodir etishga jalb etgan shaxs sodir etilgan jinoyatning ishtirokchisi deb tan olinadi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deb topiladi. Jismoniy shaxslarning javobgarligi Jinoyat sodir etgunga qadar o‘n olti yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar. Jinoyat sodir etgunga qadar o‘n uch yoshga to‘lgan shaxslar javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirganliklari (97-moddaning ikkinchi qismi) uchungina javobgarlikka tortiladilar... O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 17-modda 46 Jinoyat sodir etishda rahbarlik qilish bajaruvchilar va hamkor bajaruvchilar kuchini bevosita jinoiy qilmishni bajarishga yo‘naltirish bo‘yicha faoliyatni bildiradi. Dalolatchilik boshqa shaxsni jinoyat sodir etish yoki jinoiy faoliyatda ishtirok etishga undashda o‘z aksini topadi. Undash dalolatchining boshqa shaxslarda jinoyat sodir etishda ishtirok etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish ishtiyoqini shakllantirishga qaratilgan faol va tashabbuskor xatti-harakatidan iborat. Jinoyatni sodir etishda ko‘maklashgan shaxs yordamchi hisoblanadi. Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo‘llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburiy chorasıdir. Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to‘sinqilik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi. Majburiy jamoat ishlari pensiya yoshiga yetgan shaxslarga, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga, harbiy xizmatchilarga, chet el fuqarolariga va O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Ozodlikni cheklash voyaga

yetmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi olti oydan o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Inson va davlat: ular o'zaro qay tarzda bog'langan:

Tarixda inson o'z huquqlari uchun kurashmagan davr bo'lмаган. Kishilarning o'z huquqlari uchun kurashi jarayonida insonning munosib hayot kechirishga huquqi yoqlangan ko'plab g'oyalar, nazariyalar hamda ta'limotlar yuzaga keldi va rivojlandi. Uyg'onish davri mutafakkirlari Sharqning mashhur huquqshunoslaridan biri Imom Burhoniddin al-Marg'inoniyning har bir insonning tabiiy huquqlariga, u ana shu davlatning fuqarosi ekanligi yoki aksinchaligidan qat'i nazar, rioya etilishini qonunlashtirish va ta'minlash zarurligi to'g'risidagi g'oyasini yoqladilar. Xuddi ana shu davrdan e'tiboran davlatga mutlaqo boshqacha – shaxs huquqlarini poymol qiluvchi institut (tashkilot) tariqasida emas, balki uning inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan yondashilmoqda.

okimiyat – bu odamlar, moddiy obyektlar, hududlarni boshqarish, buyruq berish imkoniyati. U avtoritet, so'z, xatti-harakat, shuningdek, majbur etish vositasida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining yagona manbayi ekanligi to'g'risidagi qoida mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekistonda davlat hokimiyati xalq manfaatlari asosida va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan vakil qilingan organlar hamda Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunchilik bilan amalga oshiriladi. Konstitutsiyada ko'rsatilmagan tartibda hokimiyat organlari faoliyatini to'xtatish yoki bekor qilish, davlat hokimiyati vakolatini berish, yangi va hokimiyatning parallel tuzilmasini tuzish Konstitutsiyaga zid hisoblanadi va qonun bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Tarixiy huquq testlar

1. Konstitutsiya qachon qabul qilingan?

- A) 1992-yil 10-noyabr;
- B) 1991-yil 8-dekabr;
- C) 1991-yil 9-oktabr;
- D) 1989-yil 10-yanvar;

2. Voyaga yetmaganlarga necha yil ozodlikdan mahrum qilish muddati qancha?

- A) 6 oydan 10 yilgacha;
- B) 1 yildan 5 yilgacha;
- C) 1 oydan 1 yilgacha;
- D) 5 yildan 25 yilgacha;

3. Davlat manfaatlari va xavfsizligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurash olib borish kimning vazifasi?

- A) Soliq B) Davlat xavfsizlik xizmati C) Prokuror D) Oliy Majlis

4. O'zbekiston bosh qomondoni lavozimiga kim o'tiradi?

A) Prokuror B) Prezident C) Senat D) Jismoniy shaxs

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol topshiriqlariga bog'liq. Yo'l yo'lakay duch kelgan savollar bilan o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi.

Hozirga kelib nafaqat o'quvchilar balki yoshi kattalar ham o'z haq huquqini bilmaydi. Afsuski bu juda ayanchli! O'z haq huquqini bilgan odam hayotda hech qoqilmaydi va muammolarini o'zi hal qilishga harakat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» T «O'zbekiston», 2011-yil
2. I.A.Karimov. «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotining yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi». T., «O'zbekiston», 2012 yil.
3. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
4. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
5. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: O'zbekiston, 1996. – 366 b.
6. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: O'zbekiston, 1996. – 349 b.
7. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O'zbekiston, 1997. – 384 b.
8. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. – T.: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: "O'zbekiston", 1999. – 410 b.

Internet tarmoqlari:

1. www.TDPU.uz
2. <https://t.me/Azizjonvich>
3. www.pedagog.uz
4. www.ziyonet.uz.